

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**TUPROQ BIOGEOKIMYOSI – BIOSFERANING BARQAROR
RIVOJLANISHI VA MUHOFAZASI**

**xalqaro ilmiy
anjuman materiallari**

TO'PLAMI

СБОРНИК

**материалов международной
научной конференции**

**БИОГЕОХИМИЯ ПОЧВ – УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И
ОХРАНА БИОСФЕРЫ**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.N.Ostonaqulova, S.X.Zakirova	
Sariqo'rg'on tarixiy yodgorlik tuproq-gruntlarining sho'rlanganlik holati.....	117
S.X.Zakirova, R.Z.Rajavaliyeva, G.I.Ikromaliyeva	
Shifobaxsh malina o'simligini madaniy o'g'itlar bilan oziqlantirish.....	121
M.X.Diyorova, S.N.Xoliqova	
G'uzor massividagi qo'riq och tusli bo'z tuproqlarining agrokimyoiy xossalari.....	126
M.T.Isag'aliyev, R.B.Matholiqov, N.Sh.Xakimjonova, D.K.Tolibova	
Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar mexanik tarkibining o'zgarishi	132
V.Y.Isaqov, S.B.Akbarov	
Yozyovon tumanining tabiiy geografik shart-sharoitlari.....	136
R.A.Iminchayev, M.A.Yuldasheva, J.G' Ma'rufjonov, G.M.Mamirjonova, G.G'.Yusupjonova	
Janubiy Farg'ona och tusli bo'z tuproqlarning mineralogik tarkibi hamda mineral o'g'itlarning ahamiyati, sinflarga bo'linishi	140
R.A.Iminchayev, T.A.Fayziyeva, M.X.Boboyeva, D.S.Ro'zaliyeva, R.M.Raximova	
Janubiy Farg'ona och tusli bo'z tuproqlardagi Kovul o'simligining morfologiyasi, dorivorlik xususiyatlari va tuproqning agrokimyoiy xossalariiga ta'siri	144
N.Sh.Bazarova, X.B.Mustafayev	
Tuproqda kimyoiy birikmalarning to'planishi va insonlarda kelib chiqayotgan kasalliklar.....	147
N.A.Ergasheva	
Farg'ona va Qo'qon shaharlari tuproqlarining morfogenetik xususiyatlari.....	150
N.I.Teshaboyev, O.A.Mirodilova, A.A.Bozorboyeva	
Mikrobiologik o'g'itlarning tuproq unumdorligi va qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga ta'siri	157
M.A.Yusupova	
Sug'orish ta'sirida qumliklarning o'zgarishi	160
O.K.Usmonov, M.A.O'lmasova	
Almashlab ekish, tuproq unumdorligini oshirishni hamda sifatli chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni garovidir	164
Q.A.Darvonov, A.A.Saminov	
Suyuq azotli o'g'itlar bilan bargidan oziqlantirishni kuzgi bug'doyning rivojlanish fazalariga ta'siri	167
S.A.Maxramxujayev, A.N.Meliqo'ziyev, O.D.Saidova	
Yangi o'zlashtirilgan eroziyalangan och tusli bo'z tuproqlarda karbonatlar va gips differensiatsiyasi	170
R.M.Abdurahmonov, M.I.Mahmudova, Q.M.Shermatova, G.H.O'tanova, G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova	
Kolmatajlangan tuproqlarda pista yetishtirishning afzalliklari	174
R.A.Iminchayev, M.A.Sattorova, J.G 'Yigitaliyev, J.G'.Ma'rufjonov, M.X.Boboyeva	
Janubiy Farg'onada shakllangan och tusli bo'z tuproqlarni agrokimyoiy xossalarni o'zgarishida azotli o'g'itlarning o'mi hamda ulami ishlab chiqarish	178
S.M.Nazarova, Z.R.Avliyoqulov, Y.G'.Ismoilova	
Buxoro vohasi sug'oriladigan tuproqlari tahlili.....	182
A.T.Turdaliyev, G'.G'.Mamajonov, Y.H.Muhammadov	
Sug'oriladigan tuproqlarda lantanoidlar va radioaktiv elementlar geokimyoisi	
M.Z.Mamadaliyev	
Kuzgi bug'doyning barg sathi maydoniga sholi poxoli, mahalliy hamda mineral o'g'itlarning ta'siri	192
G'.T.Parpiyev, N.A.Qilichova	
Konimex tabiiy-geografik rayoni tuproqlarining mikro va makroagregatligi	195

3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

V.Y.Isaqov, G'A.Akbarov	
Farg'ona vodiysi qumli hududlarining umumiyl tafsifi.....	200
M.A.Газиев, З.А.Мукимов	
Роль органических веществ в стимулирование деятельность почвенных микроорганизмов.....	204



UO'K: 631.4

**ALMASHLAB EKISH, TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHNI HAMDA SIFATLI
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISHNI GAROVIDIR**

**СЕВООБОРУТ – ГАРАНТИЯ ПОВЫШЕНИЯ ПЛОДОРОДИЯ ПОЧВ И
ПРОИЗВОДСТВА КАЧЕСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ ЖИВОТНОВОДСТВА**

**CROP ROTATION – A GUARANTEE FOR INCREASING SOIL FERTILITY AND
PRODUCING QUALITY LIVESTOCK PRODUCTS**

Usmonov Odiljon Kamilovich¹ 

¹Farg'ona davlat universiteti, q.x.f.n.

O'lmasova Mushtariy Abduqahhor qizi²

²Farg'ona davlat universiteti, talabasi.

Annotatsiya

Maqolada tuproq unumdorligini o'simliklardan yugori hosil hamda hayvonlardan insonlar salomatligi uchun oqsilga boy mahsulotlar olishdagi ahamiyati almashlab ekishni ilmiy asosda tashkilanishiga bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Аннотация

В статье на научной основе написано, что плодородие почвы зависит от севооборота различных бобовых растений, используемых для кормления животных и получения корма, богатого протеином.

Abstract

In the scientifically based article, it is stated that soil fertility depends on the crop rotation of various leguminous plants used for feeding animals and obtaining protein-rich fodder.

Kalit so'zlar: Mikrobiologik jarayon, tipik bo'z tuproq, ildiz massasi, organik qoldiq, monokultura, lyoss, biosfera, ekotizim, biogeosenoz, biomahsulot.

Ключевые слова: микробиологический процесс, типичная сероземная почва, корневая система, органические вещества, монокультура, лёсс, биосфера, экосистема, биогеоценоз, биологический продукт.

Key words: microbiological process, typical sierozem soil, root system, organic substances, monoculture, loess, biosphere, ecosystem, biogeocenosis, biological product.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning murakkab tarmoqlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Xalq xo'jaligining barcha sohalarida bo'lgani kabi qishloq xo'jaligida ham umumiqtisodiy qonunlar harakatda bo'ladi, ammo tarmoqda mahsulot yetishtirish, eng avvalo yer va tabiat bilan bog'liq bo'lib, mavsumiy xarakterga ega ekanligi mahsulot yetishtirishda o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan Yer kodeksi Fermer xo'jaliklari to'g'risida, Dehqon xo'jaligi to'g'risidagi qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlar yer egalarining huquqlari uzoq muddatli ijara berilgan yer maydonlaridan maqsadli va oqilona foydalanishdagi javobgarlikni kuchaytirish hamda tuproqlarning tabiiy unumdorligini saqlash va uni oshirishga qaratilgan. Chunki yer, unumdar qatlami bo'lgan tuproq mamlakatning bebafo boyligi, resursi bo'lib kelajakda ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Keyingi yillarda tuproqqa bo'lgan munosabatlarni tartibga solish hamda resurslardan unumli foydalanish darajasini oshirishga qulay shart –sharoitlar va imkoniyatlar yaratilmoqda [1, 2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Dehqonchilikda almashlab ekishni joriy etib, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish dehqonchilik ilmining asosiy negizi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi ekinlarini almashlab ekish orqali tuproq unumdorligini oshirish, undan oqilona foydalanib, ekinlardan sifatlari va yuqori hosil olish

3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

hozirgi kunda soha mutaxasislar va olimlarga sir emas. Tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga oid respublikamizdag'i va xorijdag'i ilmiy tadqiqot institutlarida juda ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan va bu sohadagi ishlar muntazam olib borilmoqda. Ma'lumki uzoq yillar davomida respublika dehqonchiligidagi g'o'za –beda almashlab ekish tizimi keng joriy etilgan edi. O'sha yillarda tuproq unumdorligi va paxta hosildorligini oshrishning asosiy omillardan biri beda o'simligi orqali amalga oshirilgan. Tuproqda to'planishi kerak bo'lgan organik qoldiqlarni miqdori, mikrobiologik jarayonlarni o'tish va tuproqni unumdorligini ortishida bedaning roli katta bo'lgan. Hamda beda chorvachilikning eng asosiy qimmatli ozuqasi hisoblangan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Markaziy Osiyo tuproq unumdorligini oshirishda bedaning ahamiyatini o'rganish bo'yicha juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida A.I.Golodkovskiy va N.I.Golodkovskayalarning (1937) aniqlanishicha tuproqning 0-30 sm. li qatlamida bir yillik bedada qektariga 37,5 sentner, ikki yillik bedada 41,7 sentner, uch yillik bedada 66,3 sentner miqdorda tuproqni azotga boyitadigan ildiz massasi to'plangan [3]. A.L.Toropkinanining ma'lumotlariga ko'ra, tipik bo'z tuproqlarni 0-40 sm qatlamida bedani birinchi yilda ildiz massasi qektariga 66,5, ikkinchi yilda 113,0 sentner va uchinchi yilda 105,1 sentnerni tashkil etgan. Tuproq unumdorligining saqlash va oshirish ekinlardan yuqori hosil olish uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini almashlab ekishda birga beda o'simlididan foydalanish ijobiy natijani bermaydi. Buning uchun almashlab ekish tizimlariga oraliq, takroriy don, don-dukkakli va don-boshqoli ekinlarni kiritish tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga xizmat qiladi. Germaniya Federativ respublikasi Bonn shahridagi o'simlikshunoslik ilmiy – tadqiqot institut ilmiy xodimi V.Volgetning fikricha, oraliq ekinlar o'stirligandan so'ng tuproqning haydalma qatlamida o'simlik qoldiqlarining maydanishni natijasida qektariga 30-60 kg azot to'planadi va keyingi ekiladigan asosiy ekinni oziqlanishi yaxshilanadi. Bundan tashqari oraliq ekinlar hayvonlar uchun muhim ozuqa bazasini yaratadi va tuproq ozuqa tarkibini yaxshilaydi. Shunga o'xshash fikrlarni Avstraliyalik olim K.Binder ham tasdiqlab, oraliq yoki takroriy ekinlar qishloq xo'jaligini intensifikatsiyalash uchun muhim omillardan biri deb hisoblaydi. Ular nafaqat qo'shimcha va arzon ozuqabop o'simliklar bo'libgina qolmay tuproq strukturasini yaxshilaydi, unumdorligini oshiradi hamda almashlab ekishda donni va don-dukkakli mahsulotlarni ko'payishiga olib keladi natijada hayvonlarga to'yimli ozuqalar yetishtiriladi, bu esa insonlar salomatligi uchun mukammal oqsilga boy chorvachilik mahsulotlarini ta'minlaydi [4].

Sug'oriladigan yerlarning tuproq unumdorligini saqlash va oshirishda asosiy sharoitlardan biri yerni uzoq vaqt davomida uzlusiz o'simliklar bilan qoplanib turishi bo'lib bunda tuproqda organik qoldiqlar ko'p to'planadi, yuzasi qiziydi, namlik kamayadi, tuproq kam sho'rланади va qurib qolmaydi. Bunday natjalarga almashlab ekishda asosiy, takroriy va oraliq ekinlarni to'g'ri hisoblangan jadval asosida ekanligidagina erishish mumkin. Bundan shunday fikrga kelinadiki, qishloq xo'jaligi ekinlarini almashlab yoki navbatlab ekishda oraliq, don, don- dukkakli ekinlardan foydalanish , tuproq unumdorligini saqlash va oshirishda katta ahamiyatga ega.

XULOSA

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda foydalanayotgan asosiy yer maydonlaridagi tuproqlar unumdorligining pasayib borayotganligiga, bizningcha juda katta maydonlarda ayrim ekin yakka turlarning yakka hokimligi (monokultura) va ayrim yerga ekinlardan yuqori hosil olish maqsadida faqat mineral o'g'itlardan foydalanish hamda yer tuzishni ilmiy asoslariga rioya qilmaslik sabab bo'limoqda deb hisoblaymiz.

Unumdorlik faqat tuproqqa xosdir, ya'n'i tuproq hosil qiluvchi ona tog' jinslardan – lyosda kelib chiqishiga qarab biroz unumdorlik xossasi mavjud, boshqalarda esa bunday unumdorlik xususiyati yo'q.

Biosfera bu o'z - o'zini boshqaruvchi yirik tizimdir. Ekotizim yoki biogeosenoz hamda tuproqlar biosferaning asosiy komponentlardan bo'lib, ayni vaqtida tuproqning o'z o'ziga xos murakkab tizim shaklida mavjudir.

Tuproq unumdorligi, yoki unumdor,unumli tuproq deganda, faqat yuqori hosil beruvchi tuproq sharoiti emas, balki yuqori hosil berish bilan birga, sifatli, ya'n'i ekologik toza tabiiyga yaqin biomahsulot beruvchi tuproq sharoiti hosil qilinishini tushunmoq lozim.

Tabiiy sharoitida ona tog' jinsidan o'simlik va hayvonot dunyosi qoldiqlari ta'sirida tuproq unumdorligi kelib chiqadi. Dehqonchilik sharoitida esa, yil davomida necha marta necha xil ekin

2-SHOBA: TUPROQ UNUMDORLIGI – LANDSHAFTNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI

yetishtirish, ulardan maksimal ko'proq biomassa olib ko'proq qoldiq qoldirish, hosil bilan olib ketiladigan qismning ham iloji boricha yerning o'ziga qaytarish go'ng hamda boshqa qoldiqlar holida juda muhimdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarni rag'battantirish konesiyasi to'g'risida" 2003-yil 27-oktabr |PF-3372 sonli farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora – tadbirlar to'g'risida" 2003-yil 30-oktabr №476 sonli qarori
3. Голодковский А.И., Голодковская Н.И. Корневая система люцерны и плодородия почвы. Т., Фан -1937 с.81.
4. Nosirov U.N. Fermer xo'jaliklarini bargaror rivojlantirish, oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlashning ilmiy va amaliy asoslari. Toshkent-2008